

“QORAKO‘Z MAJNUN” HIKOYASIDA OBRAZLAR TAHLILI

Shahzoda BAXRIDDINOVA,

*Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15878537>

Annotatsiya. Bu maqolada jahon adabiyoti durdonalaridan bo‘lgan “Qorako‘z Majnun” hikoyasining obrazlari tahlil qilingan. Ijtimoiy hayotdagi e‘tiqod masalalarining talqini insonlar taqdiriga ta‘siri ko‘rsatilgan. Insonlarning an‘analari bilan bog‘liq hayoti va ularga e‘tiqod qilish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: e‘tiqod, ramziylik, badiiy adabiyot, ijodkor mahorati, badiiyb asar, inson ruhiyati, ona obrazi

Аннотация. В статье анализируются образы повести «Каракоз Меджнун», одного из шедевров мировой литературы. Показано влияние интерпретации религиозных вопросов в общественной жизни на судьбы людей. Анализируются вопросы жизни людей, связанные с традициями и верованиями

Ключевые слова: вера, символика, художественная литература, творческое мастерство, произведение искусства, психика человека, образ матери.

Annotatsion. This article analyzes the images of the story "Qarakoz Majnun", one of the masterpieces of world literature. The impact of the interpretation of issues of faith in social life on the fate of people is shown. The life of people associated with traditions and issues of faith in them are analyzed.

Keywords: faith, symbolism, fiction, creative skill, work of art, human psyche, image of mother

Adabiyotda hikoyalar va ularning mavzulari turlichi. Ijtimoiy hayot masalalari, ma‘naviy-ma‘rifiy, diniy-didaktik tarzda ifodalanadi. “Qorako‘z majnun” bu hikoya bir itning vafodorligi haqida emas, balki real hayotimizda kamdan-kam uchraydigan iymon, sadoqat, vafo kabi nozik tuyg‘ular haqida so‘z boradi. Avvalambor hikoyaning epigrafiga e‘tibor berishimiz lozim. Epigrafdagi “Quroni karimdan” “Sizlardan qaysi biringiz o‘z dinidan qaytsa va shu kofirlikcha o‘lsa, bas, ana o‘shalarning (qilgan savobli) amallari xabata (bekor bo‘lur) ular do‘zax ahlidandur va u yerda mangu qolur. (Baqara surasi, 217-oyat). Aytib o‘tish joizki, yurtimizda din erkinligi fuqarolarimizga xohish-istagi tufayli belgilangan. Har bir shaxs o‘zi xohlagan dinga e‘tiqod qilishi mumkin. Hech kimga majburiy cheklov yo‘q. Ammo islom dinimizda har qanday gunoh kechirilishi, xatto zino ham deyilgan, biroq shirk keltirish bundan mustasno.” Ya‘ni dindan kechib, boshqa dinni qabul qilish, hech qachon kechirilmaydi”, deyilgan. Yuqorida aytilgandek “barcha savobli amallari ham bekor qilinur”,- deb aytib o‘tilgan. Bu asarda bosh qahramon ona timsoli hisoblanadi. O‘zbek ayollariga mos musulmalik, sadoqat, sabru-qanoat aks etgan. Insonlar umr bo‘yi farzand o‘stirib, qariganimda suyanguvchim degan umid ila yashaydi. Shu bilan birga

Saodat aya ham boshqalardan farqli o‘laroq qadaridan ko‘p narsa xohlama edi. Shubhasiz, har bir ayol farzandlarining kamolini ko‘rishga loyiq. Saodat aya erini, 32 yil oldin armiyaga ketib kelmagan o‘g‘li Bo‘rixonni shu bilan birga qizi Qumrini ham turmushi o‘xshamagani uni anchagina qarigan edi. Har safar joynamoz ustida o‘tirganida eri va farzandlari haqqiga duo qilar edi. Har qanday vaziyatda ham ona baribir ona.

Qariganda ham o‘zini emas, balki uzoqda bo‘lgan yillar davomida bir marta yuz ko‘rilmagan o‘g‘lining yo‘liga intizor edi. Qizini ham ko‘zi ochiqligida baxtini ko‘rishni istar edi. Hikoyada Saodat aya timsolida sabr, metin iroda kabi xislatlar yetakchilik qiladi. Yana bir asosiy qahramonlardan biri it obrazi hisoblanadi. Tepada aytilgan hadisda: “Jannatga kiradigan o‘n nafar hayvondan biri bu “Ashobi kahfning vafodor itidir”. (Al-jome al Kabir). Bu it Saodat ayaning yaxshi va yomon kunlarida birga bo‘lgan. Garchi uni Qumri yomon ko‘rsa ham Saodat aya itni o‘z uyining a‘zosidek bilar edi. Qayga borsa izidan ergashar, xatto Saodat aya kasalxonada yotib qolganida, it bir oy o‘sha yerdan bilmagan edi. Aslida bu vaziyatda farzandlar qilishi kerak bo‘lgan vaqtda it shunchalik jon kuydirgani tahsinga loyiq deb aytsak adashmaymiz. Bir kuni farzandining uyidan qaytayotgan Saodat ayaning anchadan beri kutgan yangilik kutib qarshi oldi.

Yillar davomida qalbida og‘riq, ko‘ksida esa misli ko‘rilmagan armonlaridan forig‘ bo‘lish oniga yaqin edi. O‘g‘lini ko‘rganida esa hamma narsani unutdi. Xatto o‘g‘lidan aroq va sham isi taralib turganiga ham e‘tibor bermadi. It notanish kimsaga xavotirli o‘riklar edi, xuddi bir noxushlikni bilgandek. Kechqurun hamma narsa joyiga tushgandek go‘yo, karavotda Bo‘rixon uxlayotgan edi. Bexosdan onasining ko‘zi ko‘ksidagi chayon surati tushirilgan tatuni ko‘rib qo‘rqib ketdi. Buning ustiga bo‘ynidagi zanjirining uchida butni ko‘rib, ko‘z o‘ngi qorong‘ulashdi. Yillar davomida ko‘zi to‘rt bo‘lib kutgan o‘g‘li edimi degan savol hanuz javobsiz qoldi. Bir tomondan o‘g‘li kelganiga xursand bo‘lsa, ikkinchi tarafdin esa mahzun holda el-yurtning oldida boshi egilgan edi. Ba’zida inson insonga nisbatan bergan ozorni, azob-uqubatni hayvon ham qolmaydi, afsuski.

Bo‘rixonning tug‘ilishi onasini qanchalik xursand qilgan bo‘lsa, umrining so‘nggi damlarida bo‘lgan voqealar shunchalik ruhiy zarba berdi. Buni yozuvchi tomondan bir kunda ajinlari ko‘payib, oqargan sochlari yana sezilarli darajada ortganini yozadi. O‘g‘li ketayotganida ham kuzatgani chiqmaydi, qizi qancha qistasa ham ichidan nimalar o‘tayotganini faqat o‘zi bilar edi. Bu besh kunlik dunyoda hamma ham baxtli yashash harakat qiladi, ming afsuski buni iloji yo‘qligini bu asardan anglab olish qiyin emas. Muqaddas Qur‘oni karimda ham “baxt” so‘zi bir marta tilga olingan u ham bo‘lsa jannatdagilardir. Qanchalik qiyin bo‘lmasin

o‘g‘lidan ko‘ra it unga mehribon va sadoqatli edi. Ona uchun farzandning o‘rni boshqacha, chunki o‘z vujudidan bo‘lgan jigargo‘shasi dilini vayron qilib, eng og‘ir damlarida yelkadosh bo‘lmaganligi chin ma’noda ayanchli vaziyat. Sir emaski, Saodat ayaning vafoti hammadan ko‘ra itga qattiq ta’sir qildi. Xatto ko‘ziga yosh kelishi har jabhada farzandi onasiga bunchalik kuyunmagani, bu foniyl dunyoning hech kimga rahm-shavqat qilmasligidan darak beradi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlab aytish kerakki, hikoyada bir onaning, balki butun insoniyatning achchiq fojiasi bayon qilingan. Shu kabi gunohkor insonlar hali ham oramizda uchrab turibdi ming afsuski. Jamiyatimiz, dinimizni payg‘ambarimizning ummati bo‘la turib, yuzini yerga qaratishdan uyalishmaydi. Dini va millatini unutgan munofiq farzand qilmishlarini suv yuziga qalqitadi. Itning insonga qilgan ma’naviy xurmatini, sadoqatini insonlar bir-biriga qilaolmaganligi ta’sirli ta’riflab berilganligi yuksak ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
2. Atabayeva.G.F. “Humanizm in the novel of A. Yakubov” актуальные проблемы тюркологии: россия и тюрко-мусульманский 2021 МИР
3. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go`zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. Journal of Advanced Zoology. 2023. 2184-2192 p.
4. O‘RAZBAYEVA Mahbuba. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. “Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiallari. 2024-yil 25-yanvar, 28-32-betlar. https://oriens.uz/media/conferencearticles/5_ORAZBAYEVA_Mahbuba_28-32.pdf.
5. Omanova, M. (2024). Nizomiy Ganjaviy merosining alisher navoiy ijodiga ta’siri. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4(20), 24-27.
6. Kadirova M.N. Technological solutions and innovative digital tools. Netherlands. <https://staff.tiame.uz/storage/users/829/articles/nyOCfZLWmrPLJiMMJmugxLcoqGUmIvB9cP2PPxaq.pdf>
7. Omanova, M. (2024). Bahouddin Naqshband to‘g‘risidagi ma’lumotlar aks etgan asarlar. “O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari”. – Toshkent: 139-146.
8. Kalandarova, Dilafuz Abdujamilovna. "Research classification of Karl Reichl." *Current research journal of philological sciences* 2.11 (2021): 29-33.